



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK
VA DIZAYN INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”



“KELISHILDI”



KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONLARI

“Chizmatasvir”, “Rangtasvir”, “Kompozitsiya” fanlari

5151200- Amaliy san‘at: turlari bo‘yicha

5151201- Badiiy kulolchilik

5151202- Me‘moriy yodgorliklar bezagini ta‘mirlash

5151203- Amaliy san‘at asarlarini ta‘mirlash

5111054- Kasb ta‘limi: Amaliy san‘at

TOSHKENT – 2019 YIL

Dastur Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o'quv uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2019 yil "18" 06 dagi "10" sonli majlis bayoni

Tuzuvchi:

MRDI Badiiy kulol va ta'mirlash kafedrası
professori, tarix fanlari doktori A.Abdurazzaqov

Taqrizchilar:

Toshkent arxitektura va qurilish instituti arxitektura
fanlari doktori, professor D.A.Nazilov,
MRDI Badiiy kulol va ta'mirlash kafedrası
mudiri D.T.Xaytmetov

KIRISH

5151200-Amaliy san'at: turlari bo'yicha (5151201-Badiiy kulolchilik, 5151202-Me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash, 5151203-Amaliy san'at asarlarini ta'mirlash, 5111054- Kasb ta'limi: Amaliy san'at) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitiladigan fanlarning dolzarbligi, jamiyatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyoti tomoyillari asosida isloh qilishdagi ahamiyati va o'rni ochib beriladi.

“Chizmatasvir”, “Rangtasvir”, “Kompozitsiya” fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dasturi DTS talablari asosida ishlab chiqilgan. Respublikamizda badiiy ta'lim islohatlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar; Amaliy san'at, Badiiy kulol, Me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash, Amaliy san'at asarlarini ta'mirlash ustalari kadrlarini tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek iqtidorli, ijodkor rassom, ko'nikmalarini o'zida namayon qiluvchi va ushbu sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishini topishda mazkur fanlar katta ahamiyatga ega.

1. Fanning maqsad va vazifalari.

“Chizmatasvir”, “Rangtasvir”, “Kompozitsiya” fanlarini o'rganishdan maqsad abituriyentlarga turli chizmatasvirlarning kompozitsiyon yechimini topish borasida bilim berish hamda “Chizmatasvir”, “Rangtasvir”, “Kompozitsiya”larning har tomonlama chizish usullarini o'rgatishdan iboratdir. Chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarining vazifasi zamon talabiga qarab ijodkor rassomlar, amaliy san'at ustalari, dizaynerlar, bezakchi rassomlar va boshqa malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashdan iborat.

2. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar.

1. Chizmatasvir fanidan o'simlik shakllari rozetka ishtirokidagi natyurmort uslubiy fonda qo'yiladi. Rozetkadagi o'simlik shakli, plastikasi chuqur taxlil qilinishi shart. Natyurmortni joylashtirish jarayonida atrof muxit inobatga olinishi kerak bo'ladi. Predmetlar praporsiyasi katta va kichik xajm ko'rinishlariga ahamiyat berilishi lozim. Shu sababli chizmatasvirni juda katta e'tibor bilan nozik did asosida chizish talab qilinadi. Abituriyentlar topshiriqni xajmi 40x60 bo'lgan planshetga bajarishi kerak.

2. Rangtasvir fanidan o'simlik shakli rozetka ishtirokidagi natyurmort rangli matolardan tashkil topgan bo'ladi. Rozetkadagi o'simlik shakli, plastikasi chuqur tahlil qilinishi shart. Issiq sovuq ranglardan to'g'ri foydalanish lozim. Natyurmortni joylashtirish jarayonida atrof muhit inobatga olinishi kerak bo'ladi. Natyurmort suv bo'yoq (akvarel') uslubida bo'lganligi sababli shaffoflik holatini saqlab qolishi shart. Issiq sovuq ranglar yordamida gips real tasvirlanadi. Oq gips bo'lganligi sababli uni umumiy rangi toza ranglar orqali ishlanadi. Abituriyentlar topshiriqni xajmi 40x60 bo'lgan planshetga bajarishi kerak.

3. Kompozitsiya fanidan abituriyent topshiriqni geometrik shakllardan tuzilgan naqshni qog'ozga to'g'ri joylashtirish, asarning kompozitsiyon g'oyaviy mazmuni, badiiy va g'oyaviy ifodada ranglardan to'g'ri foydalanish, geometrik shakllardan tuzilgan naqshni to'g'ri topilganligi, amaliy san'at mutaxassisligiga mosligi, kompozitsiya markazining to'g'ri topilganligi, mavzuning mazmuni, ma'nosi hamda ranglar uyg'unligi, ishlanish mahorati va uning to'g'allanish darajasida mahorat bilan yechilganligi va tugatilish darajasi talab etiladi.

2018-2019 o'quv yili qabulida 5151200-“Badiiy kulolchilik”, “Me’moriy yodgorliklar bezagini ta’mirlash”, “Amaliy san’at asarlarini ta’mirlash”, “Kasb ta’limi: Amaliy san’at” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga kiruvchi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni quyidagi fanlar bo‘yicha topshiradilar.

№	Fan nomi	Imtihon balli
1.	Chizmatasvir	63
2.	Rangtasvir	33
4.	Kompozitsiya	93
	Jami	189

“Chizmatasvir” fani

O‘simlik shakllari rozetka ishtirokida tuzilgan natyurmort

Ijodiy imtihon bo‘yicha “Chizmatasvir” faniga ajratilgan vaqt

Fanining nomi	Topshiriqlar	Berilgan vaqt
Chizmatasvir	Natyurmort	8 soat

Abituriyent topshiriqni, qog'oz(vatman) ishlaydi.

Chizmatasvir 63 ball

Ijodiy (kasbiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi.

№	Baholash mezonlari	To‘liq javob uchun ball
1.	Natyurmortning kompozitsion joylashuvi	6,3 ball
2.	Proporsiyalarni to'g'ri topilishi	6,3 ball
3.	Rakurs holatining topilish darajasi	6,3 ball
4.	Katta va kichik shakllarning to'g'ri joylashganligi	6,3 ball
5.	Yorug' va soyani ishlanishidagi mahorat	6,3 ball
6.	Yuzaga to'g'ri joylashtirish	6,3 ball
7.	Rozetkadagi o'simlik shakli plastikasi ko'rinishi topilganligi	6,3 ball

8.	Rozetkani atrof muhit bilan bog'langanligi	6,3 ball
9.	Chizmatasvirda ketma-ketlikning to'g'ri bajarilishi	6,3 ball
10.	Chizmatasvirning tugallanish darajasi	6,3 ball

“Rangtasvir” fani

Gipsdan ishlangan o'simlik shakllari (rozetka) ishtirokida tuzilgan natyurmort.

Ijodiy imtihon bo'yicha “Rangtasvir” faniga ajratilgan vaqt

Fanining nomi	Topshiriqlar	Berilgan vaqt
Rangtasvir	Natyurmort	8 soat

Abiturient topshiriqni, tarshon yoki vatmanga suv bo'yoq orqali ishlaydi.

Rangtasvir 33 ball

Ijodiy (kasbiy) imtihonda abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi.

№	Baholash mezonlari	To'liq javob uchun ball
1.	Natyurmortning kompozitsyon joylashuvi	3,3 ball
2.	Proporsiyalarni to'g'ri topilishi	3,3 ball
3.	Rakurs holatining topilish darajasi	3,3 ball
4.	Ranglarda tuslarga ajratish mahorati	3,3 ball
5.	Issiq va soviq ranglardan to'g'ri foydalanish	3,3 ball
6.	Yuzaga to'g'ri joylashtirilganlik holati	3,3 ball
7.	Natyurmortning ranglar orqali to'g'ri ifodalanganligi	3,3 ball
8.	Rozetkani atrof muhit bilan bog'langanligi	3,3 ball
9.	Ranglarda ketma-ketlikning to'g'ri bajarilishi	3,3 ball
10.	Rangtasvirning tugallanish darajasi	3,3 ball

“Kompozitsiya” fani

Birinchi topshiriq: Berilgan mavzu

Ijodiy imtihon bo'yicha “Kompozitsiya” faniga ajratilgan vaqt

Fanining nomi	Topshiriqlar	Berilgan vaqt
Kompozitsiya	Berilgan mavzu	8 soat

Abiturient topshiriqni, ashyoda ishlashni erkin tanlaydi.

Kompozitsiya 93 ball

Ijodiy (kasbiy) imtihonda abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi.

Berilgan mavzu bo'yicha maksimal 93 ball

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Berilgan kompozitsiya ishlanadigan sathga qog'ozni to'g'ri tortilganligi	9,3 ball
2.	Geometrik shakllardan tuzilgan naqshni qog'ozga to'g'ri joylashtirish	9,3 ball
3.	Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi	9,3 ball
4.	Asarning kompozitsiyon g'oyaviy mazmuni	9,3 ball
5.	Badiiy va g'oyaviy ifodada ranglardan to'g'ri foydalanish	9,3 ball
6.	Geometrik shakllardan tuzilgan naqshni to'g'ri topilganligi	9,3 ball
7.	Amaliy san'at mutaxassisligiga mosligi	9,3 ball
8.	Kompozitsiya markazining to'g'ri topilganligi	9,3 ball
9.	Mavzuning mazmuni, ma'nosi hamda ranglar uyg'unligi	9,3 ball
10.	Ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasi	9,3 ball

3. Kasbiy (Ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

5151200-Amaliy san'at: turlari bo'yicha (5151201-Badiiy kulolchilik, 5151202-Me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash, 5151203-Amaliy san'at asarlarini ta'mirlash, 5111054- Kasb ta'limi: Amaliy san'at) ta'lim yo'nalishlariga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda 24 akademik soat (astronomik 18 soat) vaqt davomida chizmasvir fanidan natyurmort quyilmasini, Rangtasvir gipsdan ishlangan o'simlik shakllari (rozetka) ishtirokida tuzilgan natyurmort va kompozitsiyadan berilgan mavzu va erkin mavzu bajaradilar. Ijodiy imtihonlar 9⁰⁰ dan 12⁰⁰ gacha va 13⁰⁰ dan 16⁰⁰ gacha davom etadi. Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda shakllantirilgan guruhlar kesimidagi abituriyentlardan iborat bo'lib ijodiy imtihon guruhlar bo'yicha o'tkaziladi. Ijodiy kasbiy imtihonlar maxsus o'quv qurollari bilan jihozlangan o'quv ijodiy ustaxonalarda o'tkaziladi.

1. **Chizmasvir.** Badiiy akademik maktab an'analari asosida natyurmortni ishlash, rozetkadagi o'simlik shakli, plastikasini chuqur taxlil qilinishi, natyurmortni joylashtirish jarayonida atrof muxit inobatga olinishi, predmetlar praporsiyasi katta va kichik xajm ko'rinishlariga ahamiyat berilishi va chizmasvirni juda katta e'tibor bilan nozik did asosida tasvirlanadi.

2. **Rangtasvir.** Badiiy akademik maktab an'analari asosida natyurmortni ishlash, issiq sovuq ranglardan to'g'ri foydalanish, natyurmortni joylashtirish jarayonida

atrof muhit inobatga olinishi kerak bo'ladi. Natyurmort suv bo'yoq (akvarel') uslubida bo'lganligi sababli shaffoflik holatini saqlab qolishi, issiq va sovuq ranglar yordamida gips real tasvirlanadi. Oq gips bo'lganligi sababli uni umumiy rangi toza ranglar orqali ishlanadi.

3. **Kompozitsiya** fanidan abituriyent topshiriqni geometrik shakllardan tuzilgan naqshni qog'ozga to'g'ri joylashtirish, asarning kompozitsiyon g'oyaviy mazmuni, badiiy va g'oyaviy ifodada ranglardan to'g'ri foydalanish, geometrik shakllardan tuzilgan naqshni to'g'ri topilganligi, amaliy san'at mutaxassisligiga mosligi, kompozitsiya markazining to'g'ri topilganligi, mavzuning mazmuni, ma'nosi hamda ranglar uyg'unligi, ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasida mahorat bilan yechilganligi va tugatilish darajasi talab etiladi. Topshiriq: berilgan mavzu bo'yicha bajarishi kerak.

Abituriyentlar ijodiy ishlarini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Chizmatasvirdan bajarilgan har bir ishga 10 ta mezon asosida baholanadi, rangtasvirdan 10 ta mezon asosida baholanadi, kompozitsiyadan 10 ta mezon asosida baholanadi, bu mezonlar asosida sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari bajargan ishning hajmi va sifatiga qarab chizmatasvir fani bo'yicha jami 63 ball, har bir mezonga to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, maksimal 6,3 ball.

Rangtasvir fani bo'yicha jami 33 ball, har bir mezonga to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, maksimal 3,3 ball.

Kompozitsiya fani bo'yicha 93 ball. Berilgan mavzuga har bir mezonga to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, maksimal 9,3 ball.

Har bir fan bo'yicha sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari 3 nafarni tashkil etadi va ular (mutaxassislik) kafedra professor-o'qituvchilar tarkibidan jalb etiladi.

4. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha "Apellyatsiya" tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari bo'yicha tushgan norozilik (apellyatsiya) arizalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan 24 soat davomida ko'rib chiqiladi. Murojaat mazmunida faqat o'zining ijodiy ishlari va ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.




Asos: Vazirlar mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-sonli qarorining 1-ilovasida keltirilgan "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi NIZOMI.

Uslubiy ko'rsatmalardan namunalar

CHIZMATASVIR FANI

Vazifa: O'simlik shakldagi rozetka ishtirokida tuzilgan natyurmort.

Namunalar:



RANGTASVIR FANI

Vazifa: O'simlik shakldagi rozetka ishtirokida tuzilgan natyurmort.

Namunalar:





KOMPOZISIYA FANI

5151201-Amaliy san'at (Badiiy kulolchilik)

Vazifa:

Namunalar:



5151202-Amaliy san'at (Me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash), 5151203-Amaliy san'at (Amaliy san'at asarlarini ta'mirlash)

Vazifa:

Namunalar:

